

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyun holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1389 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarni-nig ulushi **-0,6 f.p kamaygan.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1301 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyun oyida viloyatimizda 1658 ta yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan korx-yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 1389 o'tgan yilning shu davriga nisbatan 311 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tu-gatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,6 % kamaygan hamda ular ning asosiy ulushi Qarshi shahrida (21,3 %), Koson (8,6 %), Chiroqchi (7,8 %) va Qarshi (7,6 %) tumanlari-da kuzatilmoqda.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korx-yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 1389 ta (7,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19860 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlar-ning asosiy ulushi Qarshi shahrida (21,3 %), Koson (8,6 %), Chiroqchi (7,8 %) va Qarshi (7,6 %) tumanlari-da kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning tumanar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|-------------------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
| | birlikda | jamiga nisbatan % | birlikda | jamiga nisbatan % |
| Qashqadaryo viloyatida | 20489 | 100,0 | 19860 | 100,0 |
| Qarshi shahar | 4426 | 21,6 | 4225 | 21,3 |
| Shahrisabz shahar | 1323 | 6,5 | 1313 | 6,6 |
| tumanlar: | | | | |
| G'uzor | 926 | 4,5 | 850 | 4,3 |
| Dehqonobod | 1032 | 5,1 | 951 | 4,8 |
| Qamashi | 1375 | 6,7 | 1358 | 6,8 |
| Qarshi | 1523 | 7,4 | 1504 | 7,6 |
| Koson | 1731 | 8,4 | 1716 | 8,6 |
| Kitob | 1437 | 7,0 | 1428 | 7,2 |
| Mirishkor | 619 | 3,0 | 606 | 3,1 |
| Muborak | 792 | 3,9 | 746 | 3,8 |
| Nishon | 720 | 3,5 | 697 | 3,5 |
| Kasbi | 717 | 3,5 | 680 | 3,4 |
| Chiroqchi | 1600 | 7,8 | 1557 | 7,8 |
| Shahrisabz | 892 | 4,4 | 876 | 4,4 |
| Yakkabog' | 1376 | 6,7 | 1353 | 6,8 |

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



01.01.2018 y.




01.07.2018 y.

Korxonalar va tashkilotlar-


ning umumiy sonida faoliyat ko'r-satayotganlarning ulushi 96,9 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'satmayotgan-larning ulushi 3,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nis-batan taqqoslanganda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi –0,6 ga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,3 % savdoda, 12,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 12,1 % qurulishda, 11,5 % sanoatda, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 29,3% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1658 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 23,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (319 ta), Chiroqchi (145 ta), Yakkabog' (134 ta) va Qarshi tumanlarida (117 ta) tashkil etilgan. Eng kam Kasbi (58 ta), G'uzor (61 ta) hamda Mirishkor (62 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (274 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (258 ta), sanoatda (251 ta), qurilishda (220 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (71 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (17 ta), tashish va saqlashda (39 ta) hamda sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (58 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoxda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

| | 2017 yil yanvar-iyun holatiga | 2018 yil yanvar-iyun holatiga |
|--|-------------------------------------|-------------------------------------|
| Jami: | 1347 | 1658 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 322 | 258 |
| Sanoat | 286 | 251 |
| Qurilish | 156 | 220 |
| Savdo | 241 | 274 |
| Tashish va saqlash | 46 | 39 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 89 | 71 |
| Axborot va aloqa | 20 | 17 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 29 | 58 |
| Boshqa turlari | 158 | 470 |

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyul holatiga 15841 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7032 ta, oilaviy korxonalar – 605 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7382 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 42 tani va boshqalar 780 tani tashkil etadi.




**"O'ZBEKENERGO"
AKSIYADORLIK JAMIYATI**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 62 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga yoki 17,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 47 tasi qo'shma korxonalar, 15 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahar 25 ta (38,5 %), Kitob tumani 8 ta (12,3 %), Qarshi tumani 6 ta (9,2 %), Muborak va Qamashi tumanlari 4 ta (6,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod, Yakkabog' tumanlarida 1 ta (1,5 %) hissalariga tog'ri keladi. Mirishkor tumanida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 39 ta (62,9 %), savdoda 9 ta (14,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo-'jaligi 6 ta (9,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda axborot va aloqada 1 ta (1,6 %), qurilish 2 ta (3,2 %), boshqa turlar 3 ta (4,9 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 10 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga ko'paygan yoki 5,0 baravarga oshgan.

Bunda, AQSh rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Janubiy Koreya Respublikasi – 3 ta, Rossiya Federatsiyasi - 1 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Af'goniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 15703 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 6,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3476 tasi (22,1 %) Qarshi shahriga, 1400 tasi (8,9 %) Koson, 1263 tasi (8,0 %) Qarshi hamda 1195 tasi (7,6 foizi) Chiroqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15703 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4604 tasi (29,3 %) – savdoda, 2473 tasi (15,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2377 tasi (15,1 %) - qurilishda, 2230 tasi (14,2 %) - sanoatda, 802 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 709 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 326 tasi (2,1 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 224 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1958 tasi (12,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

■ Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

■ Sanoat

■ Savdo


■ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

■ Qurilish

■ Tashish va saqlash

■ Axborot va aloqa


■ Boshqa turlar



2018 yil yanvar-iyun holatiga 1578 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,9 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahrida (297 ta), Chiroqchi (139 ta), Yakkabog' (130 ta) va Qarshi tumanlarida (117 ta) tashkil etilgan. Eng kam G'uzor (59 ta), Kasbi (56 ta) hamda Muborak (71 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (274 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (258 ta), sanoatda (251 ta) va qurilishda (220 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (17 ta), tashish va saqlashda (39 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (58 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 616 tani tashkil etib, ulardan 605 tasi yoki 98,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **22,7 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 28,6 % yoki 173 tasi sanoat, 19,0 % yoki 115 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 106 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 16,2 % yoki 98 tasi savdo, 2,5 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 2,0 % yoki 12 tasi qurilish, 1,7 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 12,2 % yoki 74 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

(0371) 230-84-11
(0375) 221-17-93



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**